

SHIFOKORGA NAVBATNI RAQAMLASHTIRISH

Andijon mashinasozlik instituti talabasi

Rustamova Nodiraxon

Rustamovanodi06@gmail.com

+998950812805

Annotatsiya. Davlat tibbiy sug'urta tizimini joriy etishning eng muhim shartlaridan biri birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalarini raqamlashtirishdir. Ana shu talablarga ko'ra Sirdaryo viloyatidagi tibbiyot birlashmalariga lokal tarmoqlar tortilib, yuqori tezlikdagi internet bilan ta'minlandi. Ushbu maqolamiz ham, shifokor ko'rigiga navbatni raqamlashtirishga asoslangan maqola hisoblanadi. Unda mobil ilova va ijtimoiy tarmoqning turli elektron shakllari orqali foydalanish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar. EKG, "E-KADR", tonometr, fonendoskop, Elektron poliklinika, Medhub, edo.ijro.uz, diagnostika-laborator, dispenser, gipertoniya, yurak ishemik kasalligi, qandli diabet, bronxial astma, o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi, infark, insult, bronxial astma, veb-sayt

Sirdaryo viloyati kesimida oddiy bu jarayonni ko'radigan bo'lsak, ushbu viloyatdagi 126 ta shifoxona va tibbiyot muassasasi uchun mahalliy markazlashgan holda 2023-2024 yillarda 2500 donadan ortiq kompyuter jamlanmasi xarid qilindi,— deydi Sirdaryo viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i Xurshid Hakimov. Mavjud 72 ta oila shifokorlik punkti, 37 ta oilaviy poliklinika, 11 ta ko'p tarmoqli markaziy poliklinika kuniga 2000 ming nafarga yaqin aholiga elektron tizim orqali xizmat ko'rsatmoqda. Raqamlashtirish yo'lga qo'yilgani tufayli navbat kutish va ortiqcha asab buzarlilarga chek qo'yildi. Elektron tizim orqali hisobotlarning shakllanishi vaqtni tejash, tejalgan vaqt hisobiga boshqa bemorga xizmat ko'rsatish imkonini bermoqda.

Hozir, Sirdaryo viloyat sog'liqni saqlash tizimidagi ko'p tarmoqli markaziy va oilaviy poliklinikalar, oilaviy shifokorlik punktlarida 421 ta tibbiyot brigadasi

shakllantirilgan. Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida 298 ta shifokoroldi ko'rik xonalari tashkil etilib, ular tarozi, bo'y o'lchagich moslamasi, tonometr, fonendoskop, EKG, pulsoksimetr kabi zarur jihozlar bilan ta'minlandi va shu bilan birga 170 o'ringa mo'ljallangan kunduzgi shifoxonalar tashkil etildi.

Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi kadrlarni ishga qabul qilishda hrm.argos.uz tizimiga integratsiyalashdi. 11 ta shahar va tuman hamda 14 dan ziyod viloyat davolash-profilaktika muassasasi "E-KADR" tarmog'iga birlashtirildi. Tibbiyot muassasalaridagi xodimlar hisobini yuritish va bir necha shakldagi hisobotlarning elektron variantda olinishi tejamkorlik, tezkorlik va shaffoflikni ta'minlamoqda. Viloyat davolash-profilaktika muassasalari, 3 ta shahar, 8 ta tuman tibbiyot birlashmasida edo.ijro.uz elektron hujjat almashish usuli yo'lga quyildi. Bu esa, tibbiy hujjatlarning tibbiyot muassasalari o'rtasida aylanishini osonlashtirdi,—deydi X. Hakimov.

Bundan tashqari, "Elektron poliklinika"ning "Medhub" tizimi orqali 856 ming nafar aholi, jumladan, 239 ming 200 nafar tug'ish yoshidagi ayolning ma'lumotlar bazasi shakllantirildi.

Sirdaryo viloyatidagi tibbiyot muassasalari davlat tibbiy sug'urtasi tizimiga o'tishi natijasida o'tgan 2023 yilda Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi byudjeti mablag'lari hisobidan 3776 nafar imtiyozli toifadagi bemorlar davolandi.

Imtiyozli guruhga kiruvchi bemorlarning respublika shifoxonalarida davolanishi uchun elektron yo'llanmalar asosida navbatlar yo'lga qo'yilishi bemorlarga manzur bo'lmoqda. Natijada bemorlar yashash joylaridagi tibbiyot muassasalaridan elektron navbat olishi, davlat muassasalari yoki Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi bilan shartnoma tuzgan xususiy tibbiyot muassasalarini tanlashi va davolanishi mumkin.

Joriy yilning so'ngigiga qadar shifoxonaga murojaatlar va qatnovlarga oid ma'lumotlar, tor soha mutaxassislariga murojaatlar, diagnostika-laborator tahlil natijalarini elektron tarzda qayd etishga to'laqonli o'tiladi. Tibbiy brigadalar faoliyati samaradorligini oshirish, ortiqcha qog'ozbozliklarni kamaytirish maqsadida oilaviy

shifokor, amaliyotchi va patronaj hamshiralari, doylar faoliyati natijalarini baholashning elektron monitoringi yuritiladi.

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi tomonidan dasturi doirasida ishning tashkil etilishi natijasida dispanser hisobida turuvchi gipertoniya, yurak ishemik kasalligi, qandli diabetning ikkinchi turi, bronxial astma, o'pkaning surunkali obstruktiv kasalliklari bor bemorlarni 11 turdagi dori-darmon bilan ta'minlash tizimi yo'lga qo'yildi.

Bu esa, infark bilan kasallangan kishilarning 28,9 foiz, insult bilan kasallanganlarning 31,5 foiz, bronxial astma bilan kasallanganlar sonining 29,1 foizga kamayishiga yordam berdi, – deydi boshqarma boshlig'i. Eng muhimi, shifoxonalarga yo'llanma asosida murojaat qiluvchilar 67 foizdan 85 foizga oshdi. Bemorlarni asossiz shifoxonada yotqizish 65,2 foizdan 30,3 foizga kamaydi. Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarining kunduzgi shifoxonalarida davolanganlar soni 78,2 foizga oshgani faoliyatimizning ijobiy jihatlarini o'zida aks ettiradi. Shifokorlarga navbatni raqamlashtirish — bemorlar va shifokorlar o'rtasidagi navbatni yanada samarali va tez boshqarish jarayonidir. Bu tizim bemorlar uchun xizmatlar ko'rsatishda qulaylik yaratadi.

Asosiy foydalari:

1. Odamlar oqimini yaxshilash: Raqamli tizimlar yordamida odamlar navbatini boshqarish osonlashadi va navbatdagi kechikishlar kamayadi.

2. Tashkiliy samaradorlik: Raqamli navbat tizimlari yordamida xizmat ko'rsatish joylarida ishlarni tartibga solish va statistika olib borish mumkin, bu esa yanada samarali ish muhitini yaratadi.

3. Mijozlar qoniqishi: Odamlar navbat kutish vaqtlaridan qochish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa mijozlarning qoniqish darajasini oshiradi.

4. Vaqtni tejash: Raqamli navbat tizimlari bemorlarga navbat kutish vaqtini qisqartirish imkonini beradi. Ular ongli ravishda ozgina kutish bilan shifokorlar bilan uchrashuvlar tashkil etishadi.

5. To'g'ridan-to'g'ri ro'yxatga olish: Bemorlar mobil ilovalar yoki veb-saytlar orqali o'z uchrashuvlarini ro'yxatdan o'tkazishlari mumkin, bu esa navbatdagi tirbandlikni kamaytiradi.

6. Axborot aloqasi: Bemorlar o'z navbatlari haqida real vaqt rejimida ma'lumot olishlari mumkin, bu esa ularni holat va vaqt haqida xabardor qiladi.

Tizimlarning ishlashi:

Raqamli tizimlar quyidagi elementlardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Mobil ilovalar: Bemorlar uchun oson foydalanish imkoniyatini yaratadi.
2. Monitorlar va ekranda ko'rsatuvlar: Navbatdagi raqamlarni ko'rsatish orqali mijozlarga navbatni ko'rsatadi.
3. Sensorlar va displeylar: Navbatdagi raqamlarni va navbat holatini ko'rsatadigan displeylar.
4. Bulutli tizimlar: Ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish uchun bulutli platformalardan foydalangan holda yanada rivojlanish mumkin.
5. Statistika va tahlil: Tizimlar asosida bemorlar oqimini va navbatni yaxshilash uchun foydalanuvchi ma'lumotlarini tahlil qilish imkoniyatlari bor.

Shu tariqa, shifokorlarga navbatni raqamlashtirish jarayoni bemorlar uchun qulaylik yaratib, xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Shifokorga navbatni raqamlashtirish sog'liqni saqlash xizmatlarini rivojlantirish uchun muhim qadam. Bu tizim bemorlar va shifokorlar o'rtasidagi aloqani yanada samarali qiladi, vaqtni tejaydi, va bemorlarning qoniqishini oshiradi. Bu tizimlar bemorlar va shifokorlar o'rtasidagi aloqani mustahkamlashga, navbatlarni boshqarishga va umuman sog'liqni saqlash muammolarini yaxshilashga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar va innovatsion yondoshuvlar yordamida sog'liqni saqlash tizimi samarali va qulay bo'lishi mumkin.

Yana bir muhim jihat shundaki, raqamli tizimlar orqali bemorlar o'z vaqtlarini rejalashtirish va kutish jarayonini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu esa vaqtni yaxshiroq boshqarishga, navbatlardagi tirbandlikni kamaytirishga va

shifokorlarning ish faoliyatini optimallashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, bunday tizimlarning uzluksiz takomillashishi va zamonaviy texnologiyalar bilan birga ish olib borishi sogʻliqni saqlash sohasida yangi imkoniyatlar yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taʼminlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi maʼruza. 2016-yil 7-dekabr Toshkent, Uzbekiston, 2017. 48-6.
2. Zulfixarov.I.M., Mamadalieva N.B. Matematika fanidan oʻquv mashgʻulotlarini tashkil etish va oʻtkazishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari // Muhammad Al-Xorazmiy izdoshlari, –Urganch. 2018. –250 b.
3. 4.Zulfixarov I.M. Matematikadan amaliy mashgʻulotlarda axborot-kommunikasiya texnologiyalarining oʻrni // oʻzmu HABARLARI, –Toshkent.
4. 5.Xolmaxamatovich, I. X. (2023). TALABALAR UCHUN ELEKTRON DARSLIKLARNI MOBIL ILOVASINI ISHLAB CHIQISH TAHLILI. Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari, 1(1), 469-473.
5. 6.Xolmaxamatovich, I. X. (2023). AXBOROT VA KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALAR BILAN BIRGALIKDA TAʼLIM SIFATINI YAXSHILASH VA INNOVATSION GʻOYALARNI AMALDA QOʻLLASH. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(2), 270-272.
6. Mirzayeva , D., & Usmoniy , Z. (2024). KITOBLARNI SOTISH UCHUN MOBIL PLATFORMA YARATISH. Research and Implementation, 2(4), 263–266.
извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/2377> doi 10.5281/zenodo.10890487

7. 8.Dilnoza Mirzayeva , AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHDA LOGISTIKA SOXASINI AXAMIYATI , Research and implementation: Том 2 № 2 (2024)
8. TA'MINLASHNING ZAMONAVIY USULI VA VOSITALARI. Research and Implementation, 2(2), 151–158. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/2266>
9. 10.Ibroximova, M. . (2022). TA'LIMNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI BU RIVOJLANISHMI YOKI INQILOB?. Journal of Integrated Education and Research, 1(4), 457–461. Retrieved from <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/259>